



P.BENKOV: SAMARQAND MUZEYI RANGTASVIR DURDONALARI

Ruzimurotova Safura Shamuratovna,
“Samarqand” davlat muzey – qo‘riqxonasi
San‘at bo‘limi mudiri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606341>

Annotasiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi mashhur rassom Pavel Petrovich Benkovning Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi tasviriy san‘at fondida saqlanayotgan rangtasvir asarlari va ularning qisqacha tavsiflari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada ushbu asarlarning muzey fondiga qabul qilinganligi va kimlar tomonidan topshirilganligi haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Keywords: Samarkand Museum, Revenue Book, Market, Khiva, Bukhara, Benkov.

Annotation. This article discusses the paintings of Honored Art Worker of Uzbekistan, renowned artist Pavel Petrovich Benkov, preserved in the fine arts collection of the Samarkand State Museum-Reserve, and their brief descriptions. The article also provides information on the acceptance of these works into the museum fund and by whom they were transferred.

Kalit so‘zlar: Samarqand muzeyi, kirim kitobi, bozor, Xiva, Buxoro, Benkov.

*“Men Neapol, Serrento, Rim va Madrid, shuningdek
Italiya zangori sohillari va Ispaniya quyoshli
tog‘larini kezdim. Ammo, O‘zbekiston
tabiatidagi go‘zallikni hech qayerda uchratmadim”*

P.P.Benkov

Pavel Petrovich Benkov XX asr boshlarida Buxoro, Xiva va Samarqand shaharlarida yashab ijod qilgan, garchi boshqa yurtida tug‘ilib o‘sgan bo‘lsada O‘zbekistonni o‘zining ikkinchi vatanidek suyub yurtimizning go‘zal tabiati, nodir va bebaho yodgorliklarini samimiy insonlariyu qaynoq hayot tarzini o‘z asarlarida mohirlik bilan aks ettira olgan.

Maqolamda rassomning hayoti va faoliyati, ijodiy safarlari to‘g‘risida chuqur to‘xtalmoqchimasman. Chunki Benkovning ijodi hayoti to‘g‘risida judayam ko‘plab kitoblar, albomlar nashr qilingan va keng targ‘ib qilingan. Fikr bildirmoqchi bo‘lganim Pavel Petrovich Benkovning Samarqand muzeyida saqlanayotgan betakror, bebaho tasviriy san‘at asarlari va ularning qisqacha tahlili to‘g‘risida.

Samarqand muzeyining tasviriy san‘at fondida rassom ijodiga mansub 23 ta rangtasvir asarlari hamda ikkita albom va alohida qog‘ozlarga ishlangan jami 79 ta xomaki chizmalari saqlanadi. Ilk marta 1932 yilda Pavel Petrovich Benkovning “O‘rta asrlardagi Samarqandni Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi” nomli asari muzeyning tasviriy san‘at fondiga qabul qilinadi [Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi 5 kirim kitobi. 260 b]. 1933 yilda esa Xiva mavzusiga bag‘ishlangan “Xivadagi bozor”, “Xorazmdagi chig‘ir” va “Paxta teruvchi ayol” nomli rangtasvir



asarlari qabul qilingan [1, B. 262] “Xivadagi bozor” 1930 yilda Benkovni Xiva safari chog‘ida ishlangan. Asarda quyosh nuridan pana qilish uchun shoh shabbadan omonat qurilgan chaylali qator rastalar va ular orasida savdo qilayotgan ko‘p sonli odamlarni ko‘rish mumkin. Asarning asosiy syujeti chaylali rastaning tagida barra piyozlar va ularni sotayotgan sotuvchilar.

Sotuvchilarning orqa tomoni tasvirlangan. Xorazm o‘lkasi kuruq iqlim bo‘lishiga qaramay tasvirlangan barcha insonlarning egnida choponlar va boshlarida cho‘girmalar tasvirlangan. Balki erta bahor faslida ishlangan bo‘lishi mumkin asar.

Eng qizig‘i savdosi chaqqon sotilayotgan barra piyozlarning tasviri ranglar uyg‘unligida mohirlik bilan ko‘rsatib berilgan. Rastalarning ustiga yopilgan shox-shabbalar issiqdan qurib qolgan holatda, quyosh nurini to‘g‘ri tushayotgan vaqtidagi holati bilan birlikda tasvirlanishi asarni tomosha qilayotgan kishida issiq taftni his qilgandek taassurot uyg‘otadi. “Xorazmdagi chig‘ir” asari ham yuqoridagi asarga o‘xshab issiq taftni his qildiradigan darajada mohirlik bilan tasvirlangan.

Rassomning mahorati shundaki, u har bir jismning o‘z ranglarini o‘rganib, topib keyin tasvirlashida hisoblanadi. Yozning jazirama issiq kunida dalada omonatgina qurilgan chaylaning tagida soyadan pana qilib bog‘langan tuya va uning yonida quvurli suv ko‘tarish moslamasi chig‘irdan sharqirab oqayotgan loyqa suv issiq ranglarda ishlangan. Bu asarda hatto havoning ham ranggi aks ettirilgan. Aynan mana shu jihati bilan asar bebaho hisoblanadi. Xorazm mavzusiga bag‘ishlangan yana bir asar bu “Xivalik ip yigiruvchilar” hisoblanadi.

Asar 1969 yilda rassomning shogirdi Z.M Kovalevskayadan muzeyga sotib olingan [2, B.195]. Unda rassom o‘lkaning milliy koloritini yorqin va kontrast ranglarda ochib bergan. Asosiy syujetda Xorazm milliy liboslaridagi ayollarni maxsus yog‘och dastgohlar yordamida ip yigirayotgan jarayoni aks ettirilgan. Bundan tashqari asarda yog‘och ustunning pastki kismi va bir chekkada tasvirlangan qumg‘on ham asarni badiiy jihatidan to‘ldirib turibdi.

Pavel Benkov qaysi shaharda ijod qilmasin shu makon tabiati, insonlari, tarixiy obidalari va insonlarini mahorat bilan tasvirlay olgan. Samarqand muzeyida saqlanayotgan asarlari orasida rassomning Buxorodagi ijodiy mahsullari ham mavjuddir. 1930 yilda yaratilgan va 1970 yilda rassomning shogirdlaridan biri Rashid Timurov tomonidan muzeyga tuhfa qilingan “Masjiddagi ibodat” nomli asari hisoblanadi [3, B.135].

Asarda naqshinkor shiftli, yog‘och ustunli, devorlari ganch va naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan masjidida milliy libosdagi boshlariga salla o‘ralgan namozxonlarning ayni ibodat qilayotgan jarayoni tasvirlangan. Ushbu asardagi ranglar shunday mahorat bilan tanlanganki, unda sokinlik, tinchlik va osoyishtalik ranglar orqali tarannum qilingan. Rassomning bozor mavzusi Buxoroda ham davom etgan. 1929 yilda ishlangan “Buxoro. Choyxona” asari 1969 yilda rassom Z. Kovalevskaya tomonidan Samarqand muzeyiga topshirilgan [2, B.195].

Quyoshdan pana qilish uchun yog‘ochlarning ustiga mato tortib pana qilingan omonatgina chaylalar va ularning tagida yog‘och so‘rida soyalab choy ichib o‘tirgan



erkaklar tasvirlangan. Erkaklarning egnidagi choponlarga ishlangan ba'zi ranglarni aytmasa asosan issiq ranglar uyg'unligida Buxoro iqlimini quruq issiq tafti asarda sezilib turadi. Z.Kovalevskaya 1969 yilda o'z kolleksiyasidan yana bir asarni muzey jamlanmasiga topshiradi [2, B.194].

Bu asar Pavel Benkovning 1929 yilda ishlagan “Suv sotuvchi” asari hisoblanadi. Ushbu asarda ham bozordagi qizg'in savdo jarayoni tasvirlangan. Lekin asosiy urg'u soyabon ko'inishda qurilgan chayla tagida issiqdan chanoq kelganlarga maxsus idishda suv sotayotgan yosh sotuvchi tasvirlangan. Havo issiq bo'lishiga qaramay bozor gavjum. Omonat chaylali rastalardan tashqari bozorda maxsus ayvonli rastalarni xam ko'rish mumkin. Bundan tashqari, yuqorida Buxorodagi tarixiy obidalarning birini ham tasvirini ko'rish mumkin. Rassom asarni ishlashda ranglar va nur soya o'yinlaridan ustamonlik bilan foydalangan.

Benkovning ijod yo'li xilma-xil va murakkabdir. Yurtma-yurt kezib ijod qilgan rassom 1930 yilda Samarqandga ko'chib keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashab ijod qiladi. Rassomning bu yerda qolishiga, ming yillardan buyon go'zal tabiati, sokin ko'chalari va bahavo bog'lari, serbaraka bozorlariyu shirinso'z insonlari hamda bebaho osori atiqalari bilan jahon ahli tilida “Ochiq osmon ostidagi muzey” nomini olgan ushbu zamin, yuragi go'zallikka va ezgulikka tashna ijodkorni ohanrabodek o'ziga maftun etgan bo'lsa ajab emas.

Pavel Benkov Samarqandda judayam xilma xil asarlar yaratadi. Rassom tomonidan 1930 yilda ishlangan ba'zi etyudlari ham Samarqand muzeyida saqlanib kelmokda. Bu asarlar “Qizil ko'ylakdagi ayol”, “To'q sariq rangli ko'ylakdagi ayol”, “O'g'il bola” hamda “Ikki qiyofa” etyudlari hisoblanadi. 1950 yilda muzey fondiga qabul qilingan [Samarqand davlat muzey – qo'riqxonasi 18 kirim kitobi. 185 b] ushbu asarlarda ranglar va qiyofalar yetakchi o'rinda tasvirlanib, kelajakda yaratilishi rejalashtirilgan rangtasvir asarlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilgan.

1942-1945 yillar davomida rassom tomonidan ishlangan asarlardagi asosiy mavzu ikkinchi jahon urushi mavzusiga bag'ishlangan. 1942 yilda ishlangan “Yangi oilada” asarida jang maydonlaridan evakuatsiya qilingan yosh qizchani o'z oilasiga qabul qilayotgan bag'rikeng bolajon xalqimizning mehr tarovati ranglar ohangida aks ettirilgan. Shu yili rassom yana bir asarni yaratgan. Bu asar “Vatanda bahor” deb nomlangan. Ushbu asarda urushdan yaralanib uyiga qaytgan harbiy jangchini o'z yurtida, o'z hovlisida bahor faslini iliq tarovatidan bahramand bo'layotgan holati aks ettirilgan.

Urush mavzusiga bag'ishlangan asaridan biri “Qahramonni kutib olinishi” nomli asaridir. Asarda qahramon bo'lib, yaralangan holda uyiga qaytgan askarni butun qishloq ahli shodu xursandchilikda, hovuz bo'yidagi shiyponda kutib olayotganligi va yosh bolalar tomonidan kahramonga atalgan sovg'alar olib kelinayotganligi tasvirlangan. Bu asarlar 1953-1957 yillarda Badiiy ijodkorlar uyushmasi Samarqand bo'limi tomonidan muzey fondiga topshirilgan [2, B.73]; [3, B.6] 1942- yilda ishlangan va 1981- yilda rassomning qizi. Benkova Natalya



Pavlovna tomonidan Samarqand muzeyi fondiga topshirilgan [3, B.6] “G‘alabaniing habari qishloqqacha keldi” deb nomlangan asarda ham urush mavzusi aks ettirilgan.

Asosiy syujetda qishloq shiyponiga yig‘ilgan olomonga g‘alaba to‘g‘risidagi xushxabarni baralla aytayotgan erkak va uning xabarini jon qulog‘i bilan eshitayotgan odamlar uzib uzib ishlangan ranglar va nur soya yechimlari asosida mohirlik bilan tasvirlangan. Rassomning Samarqanddagi tarixiy obidalarga bag‘ishlangan ba‘zi asarlari ham muzey jamlanmasida saqlanadi. “Shohizinda” asarida ziyoratgohga kirish kismidagi bolalarning o‘zaro suhbatlashib turgan holati aks ettirilgan. Ulardan uzoqroqda esa ziyoratgohning umumiy ko‘rinishi va gumbazli maqbaralari tasvirlangan. “Rassomlar Shohizindada” asarida esa mo‘jizakor qurilgan obidani diqqat bilan tasvirlayotgan rassomlarni ish jarayonini rassom o‘z asarida aks ettirgan.

Ushbu asarlar 1953- yilda Badiiy ijodkorlar uyushmasi Samarqand bo‘limi tomonidan muzey fondiga topshirilgan. [2, B.73] Xalqning maishiy jarayoni har doim rassomning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Uning “Dutor ushlagan chol” asarida ana shunday hayot jarayonini kuzatish mumkin.

Qo‘lida dutor ushlab musiqa chalib turgan keksa chol va u chalayotgan musiqani diqqat bilan eshitib turgan bolalar tasviri atrofda uy hamda shildirab oqib kelayotgan ariqdagi zilol suv, barchasi o‘z ranglari va ohanglarida ajoyib tasvirlangan.

Ushbu asar 1981- yilda rassomning qizi Benkova Natalya Pavlovna tomonidan Samarqand muzeyi fondiga topshirilgan. [3, B.112] Benkovning mashhur rangtasvir asarlaridan biri hisoblangan “Dugonalar” asaridir.

Daraxt soyasidagi so‘rda o‘tirgan dugonalarining o‘zaro suhbatiga go‘yo siz ham qo‘shilgingiz keladi. Chunki, tasvirdagi ranglar, nur soya o‘yinlarini mukammal yechimlari, qiyofalarni real tasvirlanishi asardagi dinamik holatini kuchaytiradi. “Dugonalar” asari 1948 yilda ishlangan va 1950 yilda rassomning rafiqasi O.P.Benkova tomonidan muzeyga topshirilgan [1, B.61]

Tomoshabin e‘tiborini va e‘tirofini yillar davomida tortib kelayotgan yana bir asar borki bu P.Benkovning “Eski Samarqand” nomli asaridir. Asar 1945-1946 yillarda ishlangan. Daraxtlar bilan o‘ralgan hovuzning chetidan boshiga paranji tashlagan va chashmbandini qiya ochib hayratlanib qarab turgan ayolning kiyofasi o‘zgacha tasvirlangan. Bu asarlardagi ranglarning uyg‘unligi quyuq soyalarni ko‘rsatib beruvchi ranglar barchasi o‘sha davrdagi ayollar holatini ochib bergan. Bu asar muzey fondiga 1953- yilda Badiiy ijodkorlar uyushmasi Samarqand bo‘limi tomonidan topshirilgan [Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi 7 kirim kitobi. 73 b]. Portret janridagi ijodida rassom inson qiyofasini, xarakterini va ichki dunyosini hayotiy ravishda ochib bergan.

Samarqand muzeyida rassomning 1945 yilda ishlangan “Alyabev portreti”, “Xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi O.P.Benkova portreti” va “Lo‘li ayol portreti” kabi asarlari ham saqlanadi. “Alyabev portreti” asari 1953- yilda Badiiy ijodkorlar uyushmasi Samarqand bo‘limi tomonidan topshirilgan [1, B.7] bo‘lsa, “Xizmat



ko‘rsatgan o‘qituvchi O.P.Benkova portreti” va “Lo‘li ayol portreti” lari 1981- yilda rassomning qizi Benkova Natalya Pavlovna tomonidan Samarqand muzeyi fondiga topshirilgan [3, B.7]

Rassomning Samarqand muzeyida saqlanayotgan asarlari yillar davomida ko‘plab ko‘rgazmalar va ekspozitsiyalarda namoyish qilinib kelgan. Xususan, 2005 yilda O‘zbekiston tasviriy san‘at galereyasida tashkil qilingan “Samarqand sharq gavhari”, 2009 yilda Toshkentdagi markaziy ko‘rgazmalar zalida tashkil qilingan “O‘zbekiston zamini hakida she‘r”, 2018 yilda Samarqanddagi O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida tashkil qilingan “Soyada uxlayotgan quyosh” shuningdek, 2022 yilda Fransiyadagi Arablar madaniyatini o‘rganish institutidagi ko‘rgazmada rassomning eng sara asarlari namoyish qilingan.

Samarqanddagi O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyidagi “O‘zbekiston tasviriy san‘ati durdonalari” nomli ekspozitsiyasida esa rassomning Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasi tasviriy san‘at fondida saqlanayotgan asarlari doimiy ravishda keng tomoshabinlar uchun namoyish qilib kelinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi 5-7 raqamli kirim kitoblari
2. Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi 10-13 raqamli kirim kitoblari
3. Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi 15-16-18 raqamli kirim kitoblari